



“O‘ZBEK TILINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI VA YUKSALISHI”

Zokirova Dilfuza Xolmatjonovna

Marg'ilon shahar

2-son politexnikum onatili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya Maqolada o‘zbek tilimizni bugungi kundagi ahamiyati, jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni va hayotimizdagi eng kata o‘rni haqida tushinchalar berilgan.

Kalit so‘zlar: “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”, davlat tili, muloqot, “Til-millat ko‘zgusi”, “Til-ma’naviyat ko‘zgusi”, “Til-millatning bebaho boyligi”.

Bugun O‘zbekistonimiz “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko‘tarilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va nufuzi tobora oshib bormoqda. O‘zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda faol qo‘llanib, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda. Xorijiy mamlakatlarda tilimizga e’tibor va uni o‘rganishga qiziqish kuchaymoqda.

Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir. Davlatimiz rahbarining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni millat tarixida tarixiy hodisa bo‘ldi desak, yanglishmaymiz.

Chunki mazkur farmon asosida uzoq yillar yig‘ilib qolgan muammolar yechimini topyapti, har yili oktabr oyida mutaxassislar tomonidan kuyinchaklik bilan aytilib, so‘ngra qog‘ozlarda qolib ketgan takliflar, tavsiyalarning hukumat doirasida e’tiborga olinishi o‘chib borayotgan umid uchqunlarini yana yondirdi. Prezidentimiz tomonidan o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyini oshirish bo‘yicha qator vazifalarning qo‘yilishi tilimizga bo‘lgan hurmatning yuksak namunasidir.

Tilimizga davlat miqyosida maxsus farmon asosida e’tibor qaratilayotgan ekan, uning jamiyatdagi nufuzi, o‘rni, obro’sini oshirish, huquqiy maqomini belgilash, tom ma’nodagi davlat tili darajasiga olib chiqish uchun nima qilish kerak? Ya’ni davlat tili muhofazasi qanday bo‘lishi lozim, degan masala ko‘pchilikni o‘ylantirishi, tabiiy. Buning uchun esa, birinchi navbatda, tilimizni har



tomonlama mukammal ishlangan qonun vositasida himoyalab qo'yishimiz kerak bo'ladi.

Til - muomala, so'zlashuv va aloqa vositasi bo'lishi bilan birga millat qiyofasini belgilovchi be'baho ne'mat hamdir. Til qaysi xalqqa oidligidan qat'iy nazar, shu xalq ma'naviyatining ustuni va asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham til ta'limida bu jihatdan katta e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq sanaladi. Ra von so'zlamog va bexato yoza olmog - ziyolilikning birinchi belgisi. Kishi ona tilida o'ylaydi, fikrlaydi, dilidagini tiliga ko'chiradi. Demak, tafakkur tili o'z ona tili bo'ladi. Yillar o'tib, milliy liboslarimiz o'zgarar, yashash tarzimiz almashar. O'yla b qararak, o'zgarmas tushunchaning, birlikning o'zi yo'q. Biroq biz o'zgartirishga haqimiz bo'lmagan, aksincha, rivojlantirib, sayqallab borishimiz, g'urur deb bilishimiz kerak bo'lgan qadriyat bor. Bu - ona tili. Unga mehr bolalikdan shakllanadi. Beshikda go'dak orom olganida ona aytgan mehrlil va orzuli alladan quvvatlanadi.

Ma'rifatparvar, o'nga yaqin tilni puxta o'rgangan olim Is'hoqxon Ibrat ham: "Bizning yoshlar, albatta, boshqa tilni bilish uchun sa'y-harakat qilsinlar, lekin avval o'z ona tilini ko'zlariga to'tiyo qilib, ehtirom ko'rsatsinlar. Zero, o'z tiliga sadoqat - bu Vataniy ishdir", deya yozib qoldirgani bejiz emas. Zero, dunyo tillarini chuqur o'rgangan holda o'z ona tilini e'zozlagan farzand o'zligini yo'qotmaydi, xalqini azizu mukarram bilib, mamlakat taraqqiyotida o'zini daxldor his qiladi!

O'zbekning yana bir buyuk ma'rifatparvari A.Avloniy: "Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurg'on oyinayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur" deganlarida nechog'li haq edi. U o'sha paytda ham tilimiz haqida qayg'urib, "milliy tilimizni saqlamoq bir tarafda tursin, uni unutib, yo'qotmoqdamiz" deya jon kuydirga edi. Bugungi kunda Yer yuzidagi 50 millionga yaqin aholi o'zbek tilida gaplashadi. Yurtimizda 130dan ortiq millat va ellat vakillari istiqomat qiladi. Mamlakatimizda shakllangan odil til siyosati bois xalq ta'limi tizimida ta'lim yeti tilda olib borilmoqda. O'zbek tili Davlat tili sifatida ta'lim o'zbek tilidan boshqa tillarda olib boriladigan ta'lim muassasalarida o'qitib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida" hamda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonunlari ta'lim tizimida joriy etilib, bevosita o'zbek tili ta'limi mazmunini takomillashtirish, o'qitish samaradorligi hamda o'zbek tilining nufuzini oshirishga qaratilgan.

Istiqlol yillarida ona tilimiz tom ma'noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi. Yangilanayotgan O'zbekistonning bugungi bosqichi - milliy yuksalish davri talablaridan kelib chiqib, bugungi kunda ona tilimizning nufuzini yanada oshirish borasida keng



ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining tashkil etilgani tilimizning tarixiy ildizlarini chuqur o'rganish, uni ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish va qo'llanish doirasini kengaytirish, filolog kadrlar tayyorlash borasidagi ishlarni yangi pog'onaga ko'tardi.

"Davlat tili haqida"gi qonunning qabul qilinishi mamlakat suvereniteti va mustaqilligi sari qo'yilgan dastlabki dadil qadam edi. "Davlat tili to'g'risida"gi qonun boshqa millat va elatlarining tillariga nisbatan ham hurmat va e'tiborda bo'lishga, bag'rikenglik tamoyillariga da'vat etadi: "O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi". Inson o'z ona tiliga qanday munosabatda bo'lsa, boshqa tillarga ham shunday munosabatda bo'lishga chaqiradi. Millatning ma'naviy boyligi tildir. U nafaqat muomala vositasi, balki xalqning madaniyati, urfodati, uning turmush tarzi, tarixidir. Aynan til tufayli insoniyat u yoki bu xalqqa mansubligidan faxrlanib yashaydi. Barcha tillarni tan olish va hurmat qilish tinchlikning birdan bir kafolatidir. Shu sababli ham har bir xalq o'z tili saqlanib qolishi uchun harakat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, tilni sevish, uni ardoqlash, millatni sevish va uni qadrlash bilan teng hisoblanadi. Har qaysi xalqning turmush tarzi, urf-odatlarini, madaniyati uning tilida o'z ifodasini topadi. Til - millat ko'zguasi, deb bejiz aytilmagan. Xalqimizning necha asrlik boy tarixi, ko'hna va serqirra madaniyati o'zbek tili ta'sirida shakllangan. Ulug' shoirimiz Alisher Navoiy shu tilda bebaho asarlar yaratib, dunyoni lol qoldirgan. Bugungi kunda jahonning barcha mamlakatlarida davlatimiz delegatsiyalari tashrifi, yoshlarimiz yutuqlari, sportchilarimiz g'alabalari sharafiga o'zbek tilida madhiyamiz kuylanayotir. Biz o'z ona-tilimizni asrab-avaylashimiz, uning nufuzini oshirishimiz, go'zal va sofligini avlodlarga meros sifatida qoldirishimiz, dunyoga tanitishda o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. "Til yashasa, millat yashaydi". Agar biz o'z tilimizning ko'rkamligi, boyligini dunyoga tarannum etsak, millatimiz yanada charog'on bo'ladi va birligimiz musyahkam bo'ladi. Zero rus tarixchisi Shobelev aytganidek "Millatni yo'q qilish uchun u yerga qurol ko'tarib borish shart emas, uning tilini, ma'naviyatini, adabiyotini yo'q qilish kerak, shunda millatning o'zi yo'q bo'lib ketadi" degan fikri naqadar to'g'ri ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Darhaqiqat, til millatning ulkan boyligi va bebaho mulkidir. Boisi milliy tilda xalqning ma'naviy-madaniy hayoti, ajdodlarning dunyoqarash va tafakkuri, boy ilmiy va ijodiy merosi mujassam bo'ladi. Dunyodagi barcha ezguliklar ona allasi orqali farzand ong-u shuuriga ona tilida singadi. Istiqloq, milliy g'urur kabi tushunchalar ham ona tili bilan chambarchas bog'langan. Shu sababdan o'zligini saqlab qolishga intilgan har bir xalq, millat ona tilini asrab-avaylashni va



avlodlarga uni rivojlantirgan holda yetkazishni o‘zining muqaddas burchi deb biladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.10.2019-y., 06/19/5850/3939-son
2. Abduraxmonov G, Shukurov Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. T., 2008.
3. Turdieva K, Axmedova D. O‘zbek tili. T., 2007.
4. <https://lex.uz/docs/-57013>
5. Гадаев Р. Р., Джонизоков У. А., Ахадова К. С. К. ОПРЕДЕЛИТЕЛЬ ФРЕДГОЛЬМА ДВУМЕРНОЙ ОБОБЩЕННОЙ МОДЕЛИ ФРИДРИХСА //Наука и образование сегодня. – 2020. – №. 12 (59). – С. 6-8.
6. “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari”. 1995-yil 24-avgust.
7. Milliy o‘zlik va mustaqil davlatchilik timsoli. Toshkent. “Innovatsiya-Ziyo” 2020.
8. Nosirov A. “Davlat tilining uzluksiz ta’lim tizimida o‘qitilishi borasidagi muammolar”